



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,  
5-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari .....	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayyora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni .....	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari .....	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish .....	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari .....	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida .....	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli .....	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari .....	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli .....	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari .....	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni .....	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish .....	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi .....	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar .....	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari .....	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии .....	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды .....	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей .....	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



## BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING HUQUQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

D. M. Xolnazarova

Guliston davlat pedagogika instituti

"Milliy g'oya va falsafa" kafedrası dotsenti, (PhD)

ORCID ID:0009-0007-5358-8740

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etiladi. Huquqiy tafakkur tushunchasining mazmuni, uning shaxsning professional kamolotidagi o'rnı hamda ushbu jarayonning kognitiv va aksiologik komponentlari tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarda huquqiy nigilizmning oldini olish va huquqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishning metodologik prinsiplari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqiy tafakkur, huquqiy ong, professional kompetensiya, integrativ yondashuv, huquqiy nigilizm, oliy ta'lim, huquqiy qadriyatlar, aksiologiya.

**Abstract:** This article examines the scientific and theoretical foundations for developing legal thinking among future specialists in the higher education system. The content of the concept of legal thinking, its role in an individual's professional development, and the cognitive and axiological components of this process are analyzed. In addition, the methodological principles of preventing legal nihilism and developing legal decision-making skills among future specialists are highlighted.

**Key words:** legal thinking, legal consciousness, professional competence, integrative approach, legal nihilism, higher education, legal values, axiology.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы развития правового мышления будущих специалистов в системе высшего образования. Анализируется содержание понятия правового мышления, его роль в профессиональном развитии личности, а также когнитивный и аксиологический компоненты данного процесса. Также освещаются методологические принципы предупреждения правового нигилизма и формирования навыков принятия правовых решений у будущих специалистов.

**Ключевые слова:** правовое мышление, правовое сознание, профессиональная компетентность, интегративный подход, правовой нигилизм, высшее образование, правовые ценности, аксиология.

### KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda nafaqat huquqshunoslar, balki barcha soha mutaxassislarining huquqiy tafakkurini yuksaltirish strategik ahamiyat kasb etadi<sup>[1]</sup>.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va huquqiy davlat barpo etish jarayoni har bir soha mutaxassisidan nafaqat professional bilimlarni, balki yuksak darajadagi huquqiy tafakkurni ham talab etmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan "Inson qadri" tamoyili bo'lajak mutaxassislarining huquqiy ongi va tafakkurini rivojlantirishni pedagogik hamda ijtimoiy zaruratga aylantirdi.

Ilmiy adabiyotlarda "huquqiy tafakkur" tushunchasi ko'pincha "huquqiy ong" tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatiladi, biroq ular o'rtasida jiddiy farq mavjud. Huquqiy ong – bu hissiyotlar va tasavvurlar yig'indisi bo'lsa, huquqiy tafakkur esa bilimlarni tahlil qilish, huquqiy kolliziyalarni (ziddiyatlarni) hal etish va mantiqiy xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan intellektual faoliyatdir<sup>[2]</sup>.

Huquqiy tafakkur – shaxsning voqelikni huquqiy normalar prizmasi orqali idrok etishi, huquqiy bilimlarni tahlil qilishi va ularni professional faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirish nafaqat huquqshunoslik fanlarini o'qitish, balki butun ta'lim mazmunini inson huquqlari va qonun ustuvorligi g'oyalari bilan integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Huquqiy tafakkur muammosi S.S. Alekseev, N.M. Korkunov kabi yuridik soha vakillari hamda E.G'oziyev, G. Shoumarov kabi psixolog olimlar tomonidan turlicha tadqiq etilgan. Huquqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik jihatlari bo'yicha xorijiy tadqiqotchilardan L. Kohlberg (axloqiy rivojlanish nazariyasi) va J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga oid ishlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak mutaxassislarda huquqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy asosi sifatida quyidagi paradigmalarni ko'rsatish mumkin:

1. **Aksiologik yondashuv** – huquqni oliy ijtimoiy qadriyat, adolat va erkinlikni ta'minlash vositasi sifatida anglash.
2. **Ontologik yondashuv** – huquqiy tafakkurni shaxsning mavjudlik shakli va professional madaniyatining ajralmas qismi sifatida talqin etish.
3. **Integrativ yondashuv** – huquqiy bilimlarni mutaxassisning sohaga oid bilimlari (pedagogika, iqtisodiyot, texnika va boshqalar) bilan sintez qilish <sup>[3]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'limda integrativ yondashuv bo'lajak mutaxassis tafakkurini "tor doiradagi qoliplar"dan xalos etadi. Masalan, iqtisodchi mutaxassis uchun huquqiy tafakkur faqat qonunlarni bilish emas, balki iqtisodiy jarayonlarning huquqiy oqibatlarini prognoz qilish qobiliyatidir. Nazariy jihatdan, huquqiy tafakkurning rivojlanishi uchun kognitiv psixologiya qonuniyatlariga tayanib, talabalarda huquqiy interpretatsiya (talqin qilish) ko'nikmasini shakllantirish lozim <sup>[4]</sup>.

Huquqiy tafakkurning shakllanishi bir necha bosqichli ilmiy jarayondir:

*Birinchi bosqich* – huquqiy retseptsiya (bilimlarni qabul qilish).

*Ikkinchi bosqich* – huquqiy refleksivlik (o'z harakatlarini qonuniy nuqtai nazardan baholash).

*Uchinchi bosqich* – huquqiy transformatsiya (huquqiy bilimlarni professional odatga aylantirish) <sup>[5]</sup>.

Ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassisning huquqiy tafakkuri uchta asosiy komponentdan tashkil topadi:

1. **Kognitiv komponent:** huquqiy normalar, tamoyillar va qonunchilik asoslari haqidagi tizimli bilimlarning mavjudligi.
2. **Aksiologik (qadriyatli) komponent:** qonunga nisbatan ijobiy munosabat, huquqni oliy ijtimoiy qadriyat sifatida tan olish va huquqiy nigilizmning (qonunni inkor etishning) yo'qligi.
3. **Praksiologik (harakatli) komponent:** professional muammolarni huquqiy doirada hal qilish, huquqiy qarorlar qabul qilish va qonuniy xulq-atvor ko'nikmalari. Integrativ yondashuv huquqiy tafakkurni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassis (pedagog, muhandis, iqtisodchi va boshqalar) o'z sohasining huquqiy asoslari bilan fanlararo integratsiya sharoitida tanishishi lozim. Nazariy jihatdan, huquqiy tafakkurning rivojlanishi ikki bosqichda kechadi:

1. **Huquqiy axborotni o'zlashtirish:** bu bosqichda talaba huquqiy bilimlarni umumta'lim mazmunining tarkibiy qismi sifatida qabul qiladi.
2. **Huquqiy interpretatsiya va transformatsiya:** bu bosqichda mutaxassis o'z kasbiy faoliyatidagi murakkab vaziyatlarni huquqiy tahlil qilish darajasiga ko'tariladi. Masalan, bo'lajak pedagog ta'lim qonunchiligini o'zining mehnat huquqlari va majburiyatlari bilan uyg'unlashtiradi.

Tadqiqot doirasida huquqiy tafakkurni shakllantirishning quyidagi nazariy prinsiplari aniqlandi:

1. **Gumanizm prinsipi:** huquqni jazo vositasi sifatida emas, balki inson huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida anglash.
2. **Determinatsiyaviylik prinsipi:** huquqiy bilimlar kasbiy faoliyat natijadorligini belgilovchi muhim omil ekanligini anglash.
3. **Refleksivlik prinsipi:** o'zining huquqiy xatti-harakatlarini va huquqiy savodxonlik darajasini muntazam ravishda baholab borish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassislarda huquqiy tafakkurning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri huquqiy nigilizmdir. Huquqiy nigilizm – qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini inkor etish yoki ularga mensimasdan munosabatda bo'lishdir <sup>[6]</sup>. Ushbu muammoning ilmiy-pedagogik yechimi sifatida

ta'lim jarayonida "huquqiy keys-stadi" (vaziyatli tahlil) metodidan foydalanish, shuningdek, talabalarda qonun ustuvorligi ularning shaxsiy va professional muvaffaqiyatining muhim garovi ekanligi haqidagi e'tiqodni shakllantirish zarur.

## XULOSA

Bo'lajak mutaxassislarning huquqiy tafakkurini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning eng murakkab va ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Uning ilmiy-nazariy asoslari huquq falsafasi, pedagogik akmeologiya va kognitiv psixologiya integratsiyasida namoyon bo'ladi. Integrativ yondashuv asosida shakllangan huquqiy tafakkur mutaxassisa o'zgaruvchan ijtimoiy-huquqiy muhitda nafaqat qonuniy harakat qilishni, balki huquqiy ijodkorlikni namoyon etishni ham ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar mazmunini professional faoliyat bilan bog'liq holda integratsiyalash huquqiy davlat barpo etishning eng samarali intellektual poydevoridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. – B. 74.
2. Alekseev S.S. Obshaya teoriya prava. Kurs v dvux tomax. – M.: Yuridicheskaya literatura, 1981. – T. I. – S. 192.
3. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – B. 215.
4. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 1990. – B. 48.
5. Saidov A.X. Sravnitelnoe pravovedenie. – M.: Norma, 2003. – S. 112.
6. Matuzov N.I. Pravovoy nigilizm i pravovoy idealizm kak dve storoni odnoy medali // Pravovedenie. – 1994. – № 2. – S. 3–16.
7. Xolnazarova, D. M. (2022). Methods of Developing Legal Culture in Students. Conferencea, 126–134.
8. Xolnazarova, D. M., & Tangirberdiyev, S. H. (2024). Yoshlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning amaliyotdagi holati. Tadqiqotlar.uz, 37(1), 120–123.
9. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). Talabalar huquqiy madaniyatini rivojlantirishda huquqiy ta'lim-tarbiyaning roli. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 1313–1317.
10. Холназарова Д. М. (2022). Олий таълим ташкилотлари талабаларида ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришни такомиллаштириш. Innovative Developments and Research in Education, 1(12), 225–232.
11. Xolnazarova, M. (2022). Factors and Socio-Psychological Causes of Behavior Deviation in Minors. NeuroQuantology, 20(20), 1781.
12. Xolnazarova, M. X. (2019). Gender Equality as a Socio-Historical Category. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 91–95.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.